



TARBIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Saparbayeva Tazagul Tlekovna

Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrası katta
o'qituvchisi

Sabirova Mavluda Gaipbaevna

Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrası katta
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17149985>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-sentabr 2025 yil
Ma'qullandi: 13-sentabr 2025 yil
Nashr qilindi: 18-sentabr 2025 yil

KEY WORDS

*Tarbiya, innovatsion
texnologiyalar, interfaol
metodlar, axborot-
kommunikatsiya texnologiyalari
(AKT), ta'lim sifati, tarbiyaviy
jarayon, pedagogik yondashuv,
zamonaviy o'qitish usullari.*

ABSTRACT

*Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar
asrida ta'lim-tarbiya tizimida yuz berayotgan
o'zgarishlar pedagogik faoliyatga yangicha
yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, tarbiya fanining
mazmuni boy va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati yuqori
bo'lgan yo'nalish sifatida o'qitilishi jarayonida
zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali
foydalanish muhim masalaga aylanmoqda.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim-tarbiya tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar pedagogik faoliyatga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, tarbiya fanining mazmuni boy va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati yuqori bo'lgan yo'nalish sifatida o'qitilishi jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish muhim masalaga aylanmoqda. Chunki tarbiya fani faqat nazariy bilimlarni o'rgatish emas, balki yosh avlod qalbida milliy g'urur, Vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'naviy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu fan orqali o'quvchilarning axloqiy, estetik, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois, tarbiya fanini o'qitishda an'anaviy metodlardan tashqari innovatsion yondashuvlardan foydalanish, pedagogik jarayonni interfaol, ochiq va kreativga aylantirish zarurati ortib bormoqda.

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarning o'rni, ulardan samarali foydalanish yo'llari, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu maqsad - innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va ular orqali tarbiya fanining o'quvchilar uchun yanada qiziqarli, mazmunli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlash yo'llarini ko'rsatib berishdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida 2017-2021-yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir ustuvor vazifalar belgilab berildi. Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi

ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish masalasi ham o'rin olgan [1].

Mazkur farmonga muvofiq ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning nazariy qismi.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lim-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart yordamida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti tarzida amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, qoidalar va boshqa normativ hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat ta'lim standartiga rioya qilish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Maxsus va pedagogik adabiyotlarda innovatsiya bu muammo bilan shug'ullanuvchi mualliflar tomonidan turlicha ta'riflanadi.

O'zbekistonlik olim, pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxo'jayeva innovatsiya so'ziga ta'rif berar ekan, quyidagilarni keltiradi: "Innovatsiya" (inglizcha- innovation) - yangilik kiritish, yangilik hisoblanadi. Yangilik kiritish ham ichki mantiqda vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalovchi dinamik tizim hisoblanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik - bu bevosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar" deb aytib o'tadi [2].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga olim N. Azizxo'jayeva tomonidan innovatsiya tushunchasiga chuqur, tizimli va nazariy asoslangan sharh qilingan. Uning ta'rifiga pedagogik faoliyatda innovatsiyalarni joriy etishda nafaqat yangilik, balki bu yangilikning tizimga mosligi, zamon talablari bilan mosligi va rivojlanish mexanizmi muhim ekanligini anglatadi. Bu fikrlar bugungi kunda ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda uslubiy va strategik asos sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida innovatsiya so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: "innovatsiya - ingliz tilida innovations so'zidan olingan bo'lib, - kiritilgan yangilik, ixtiro bo'lib, ilmiy-texnik yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va malakani tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, faoliyat ko'lamida qo'llanilishi" deb ko'rsatilgan [3].

"Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik va o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishga asoslanib interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi"[4]. Yangilik va o'zgarishlar haqida ba'zilar yangilikni, boshqalar son jihatdan o'zgarishni, uchinchi toifa insonlar sifatning o'zgarishi, deb ta'riflaydilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yangiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining ham rivojlanishi, qulaylikka ega bo'lishini ta'minlab beradi. Shu bilan birga, yangilikka bo'lgan ehtiyoj ta'lim sohasida ham qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda.

Tarbiya fanida bu texnologiyalar yordamida ma'naviy, vatanparvarlik, ekologik, estetik tarbiya kabi yo'nalishlar yanada ta'sirchan va zamonaviy usullarda olib borilishi mumkin. Masalan, Multimedia darslari, Virtual platformalar, Mobil ilovalar, Ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar.

Olim G.B. Saidnazarova ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar barqaror rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda, deb ta'kidlaydi. U quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini quyidagicha ajratish mumkinligini ko'rsatadi:

1. Fan ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
2. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar;
3. O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash;
4. Intellektual rivojlanish monitoringi;
5. O'qitish texnologiyalari;
6. Didaktik texnologiyalar [5].

Yakunlovchi qism.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan, interfaol metodlar va virtual ta'lim muhitlaridan foydalanish orqali nafaqat o'quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish, balki ularning axloqiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga so'zsiz erishiladi. Innovatsion texnologiyalar o'quvchilar bilan individual ishlash imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida tarbiya fanining maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Rezyume: Ushbu maqolada tarbiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning dolzarbligi, ularning o'quvchilarning tarbiyaviy jarayondagi faolligini oshirishdagi o'rni, shuningdek, ta'lim sifatiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Yangi pedagogik yondashuvlar, AKT vositalari, interfaol metodlar va virtual resurslar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy ko'nikmalar va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Резюме: В данной статье анализируется актуальность эффективного использования инновационных технологий в преподавании предмета "Воспитание" их роль в повышении активности учащихся в воспитательном процессе, а также положительное влияние на качество образования. Новые педагогические подходы, средства ИКТ, интерактивные методы и виртуальные ресурсы раскрывают возможности формирования у учащихся самостоятельного мышления, социальных навыков и нравственных ценностей.

Summary: This article analyzes the relevance of effectively using innovative technologies in teaching the subject "Upbringing", their role in increasing students' activity in the educational process, and their positive impact on the quality of education. New pedagogical approaches, ICT tools, interactive methods, and virtual resources reveal opportunities for developing students' independent thinking, social skills, and moral values.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. Azizxo'jayeva.N. N., Pedagogik texnologiya va pedagogik hamda pedagogik mahorat. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2002. 169-bet.

4. Ishmuhamedov R. J., Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T. Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. 3-bet.
5. Saidnazarova G.B., Tarbiya fanini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma - Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024. - 179-181-b.



**INNOVATIVE
ACADEMY**